

**BIZ BILGAN SHOIR****Abdurahmonova Durdona**

*O'zbekiston Jahon Tillari Universiteti Xorijiy Til Va Adabiyoti Fakulteti*

So'z mulkining sultoni bo'lgan Alisher Navoiyni – barcha yosh-u qari taniydi desam, mibolag'a bo'lmasa kerak. Chunki uning purma'no g'azallari va asarlarini har bir inson yoshligidan mutoala qiladi. SHoirning hayoti va ijodini juda ko'plab olim-u tadqiqotchilar o'rgangan. Siz Alisher Navoiy haqida biroz bo'lsa ham malumotga ega bo'lsangiz kerak, albatta?.

Alisher Navoiy 1441- yil fevral oyining 9- sanasida tug'ilgan. U yoshligidan bilimga chanqoq va tinim bilmas, serg'ayrat bola bo'lgan. Malumotlarda keltirilishicha, shoir o'zbek va boshqa fors tillarni bilgan. SHuning uchun ham, turkey she'riyatda,Navoiy" taxallusi bilan nom chiqargan bo'lsa , „Foniy “ taxallusi bilan fors she'riyati olamida mashhurdir.

Alisher Navoiy ijodini yuksak cho'qqiga olib chiqqan asari bu-- „Xamsa “ dir. „Xamsa”asari 5 devondan iborat bo'lib , uning tarkibiga „ Hayrat- ul abror “, „Farhod va SHirin” , „Layli va Majnun “, „Sabb'ai sayyor “ , „Saddi Iskandariy “ singari devonlar kiradi.

„Xamsa”ning birinchi devoni „Hayrat –ul abror” ( Yaxshi kishilarning hayratlanishi ) da yaratganga , insonga va tabiatga bo'lgan falsafiy , ijtimoiy - iqtisodiy , marifiy va axloqiy qarashlar aks etgan. SHuningdek asarda turli xil san'atlardan keng foydalanilgan, xususan o'xshatish ( adabiyotda tashbeh deyiladi ) , zidlash (tazod ) va shu kabi san'atlar ( tanosub, irsoli masal ) qo'llanganini uchratishimiz mumkin. Buning isboti sifatida Navoiyning Jomiyga bag'ishlangan ta'rifini misol keltirishimiz mumkin:

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,

Koshifi asrori haqiqatdur ul.

Ko'ksi haqoyiq duri ganjasi,

Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi.

Yani dastlabki misrada bugun tariqatning zidlanishi aytilgan, ikkinchi misradagi KOSHIFI so'zi biror shaxsning ismi. Yani o'sha zamondagi Koshofi ismli shaxsning asrori (siri ) haqiqat , to'g'riligi aytilgan. Keyingi misrada ganj – boylik ma'nosi ko'chma ma'noda ishlatilgan. Maqta ( oxirgi misra) da esa yuzi oynaga qiyoslanyapti. Ko'rib turganingizdek bu misralardagi har bir so'z tub ma'noga ega. Buning asl mag'zini esa faqat haqiqiy kitobxongina chaqa oladi.

Keyingi „Farhod va SHirin “ dostonida esa sevgi – muhabbat kuylanadi. Bu doston 1484 – yilda hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Asardagi voqealar Armaniston va Chin ( hozirgi Xitoy davlati ) da sodir bo'lib, Farhod va SHirin dostonning asosiy qahramonlaridir. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish



kerakki, Navoiy bu dostonni boshqa xamsanavislarniki singari yozmay, asarga yangilik kiritadi. Yani dostondagi Xusrav va Shirin voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhodni bosh qahramon sifatida tasvirlaydi. Chunki Farhod asarda chinakam komil inson va barcha o'zbek yigitlari uchun o'rnak ro'lini o'ynagan. Shuning natijasida, doston „Xusrav va SHirin“ emas „Farhod va SHirin“ nomini olgan. Bu doston bazi manbalarda „Mehnatnoma“ yoki „shavq dostoni“ deb ham yuritilgan.

Yana bir ishqiy mavzudagi asari „Layli va Majnun“ dir. Bu doston ham 1484 – yilda yozilgan bo'lib, juda qayg'uli va g'amgin sevgi qissasi yoritib beriladi. Dostonda arab ertaklari orqali ifodalangan syujet to'qimalari Layli va Majnun orqali tugal shaklini topgan. Asardagi Majnun arab mamlakatidan bo'lib, uning asl ismi Qays bo'lgan. Keyinchalik xalq uni Qays emas, Majnun deb atay boshlaydi. Sababi safdoshlari Qaysning maktab davridayoq Layliga oshiq bo'lib, unga bog'lanib qolganini ko'rishadi. Va keyinchalik bu dard va oshiqlik kundan – kunga zo'riqib boraveradi. Buni eshitgan Laylining otasi Majnunga qizini bermasligi oqibatida yigitning darmoni ketadi. Otasi o'g'lini Ka'baga olib boradi va shunday duolar qiladi:

Demonki, meni tarabg'a xos et,  
Yoxud g'ami ishqidin xalos et!  
Dermenki, menga bu o'tni har dam,  
Afzun qil-u, qilma zarraye kam!  
Bo'ynum uza „Ayn“in aylagil tavq,  
„Shin“in ichimga shu'layi shavq.  
„Qof“in menga ayla ko'hi anduh,  
Ko'nglumga g'amini ko'h to ko'h.

Shunday qilib iltijo qilsa ham, iltijosi amalga oshmaydi va Qays Majnunga aylanib qoladi. Va saholarga bosh olib ketadi. Bu orada Laylining boshiga og'ir kulfatlar tushib, u ham taqdir taqazosi bilan sahroga kelib qoladi. Xullas asar so'nggi ikki oshiqning vafoti bilan yakunlanadi.

So'nggi ikki asari shohlik va hukmronlikning yetakchi namunasi desam mubolag'a bo'lmaydi. Mana shu „Sabb'ai sayyor“ va „Saddi Iskandariy“ devonlari xamsanavislik tarixida o'zining ijtimoiy xarakterligi va tabiiyligi bilan farq qiladi. Bulardan „Sab'ayi Sayyor“ dostoni 1484 – yil yozilgan bo'lib, 5009 bayt-u 38 bobni o'z ichiga oladi. Asarda shoh Bahrom va Dilorom voqealari tasvirlangan. Bahrom – Mars yulduzining nomidan olingan bo'lib, u juda ovga va ichkilikka berilgan shoh. Dilorom esa xushsur'at bir chiroyli qiz bo'ladi. Bahrom uni zindonga tashlatadi va kayfi tarqagandan keyin qarasa uni topa olmaydi. Natijada uzlatga chekinadi. Vazir –u hakimlar maslahatlashib unga yetti iqlim shohi bilan yetti ta qasr qurdiradilar. Moniyar qasrni turli ranglar bilan bezab, u yerga kelgan har bir sayyohning hikoyasini tinglaydi. Lekin topa olishmaydi. Ammo yettinchi iqlimdan kelgan sayyoh



Dilorom haqida aytadi va asar so'nggida Bahrom yoriga yetishishiga qaramasdan buning qadriga yetmaydi. Yani shoh yana ichkilikka ruju qo'yishi natijasida yer qariga kirib ketadi.

„Saddi Iskandariy” dostoni 1485 – yilda 85 bob va 7215 baytda yozilgan. Bu doston boshqa dostonlarga qaraganda katta hajmli asar. Asarda Iskandar Zulqarnaynning shohlik tarixi hikoya qilinadi. U Xuroson, Movorounnahr, va Eronni egallagan. Hatto umrining so'nggida Iskandar onasiga vasiyatnoma yozib, qo'lini tobuydan chiqarib qo'yishini so'raydi. Xullas Navoiy bobomiz Iskandarni shunday insonparvar va adolatli podsho sifatida keltirib o'tadi.

Navoiyning „Xamsa “ asari boshqa qator olim-u shoirlar tomonidan yuksak darajada baholangan. Xususan Husayn Boyqaro Navoiy asarini o'qib lol qoladi va uni oq otiga mindirib, unga jilovdorlik ham qiladi. Bu o'sha paytdagi juda katta hurmatdan dalolat berar edi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan tashqari A. Navoiy she'riy, ilmiy- filologik, tarixiy va iqtisodiy, tasavvufiy me'rosi bilan o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega shaxsdir. Quyida biz shoirning bir g'azalini tahlil qilamiz;

Men jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el,

Men ilig jondin yudum, chekmas ilig qonimdin el.

Tosh – toshimdin baski rasvolig' o'ti lov-lov yonar,

Har taraf yo'ldin chiqarlar o'lsalar yonimdin el.

Bu g'azal o'qilishi sodda va tushunarlidir. Chunki shoir bu g'azalida turkiy so'zlardan foydalangan. Mat'la ( boshlanish qismi )ning o'zida juda katta ma'no ifodalangan, yani men jahondan kechsam ham lekin mening jonim kecholmas demoqchi. Ikkinchi misrada esa qo'li bilan jonini olishiga qaramasdan, qo'ldagi qon eldan kechmasligi ifodalangan. Keyingi misralarda ich- ichi yonishi va o'lsa hamki, har tarafida yo'lidan chiqishi aytilmoqda. Bu g'azal haqiqiy drammatizm namuna. Bunda mazmun tiniqligi, ifoda ravonligini ko'rishimiz mumkin. Nafaqat bu g'azalida, boshqa g'azallarida shu kabi ifoda go'zalliklari mujassamlashgan. Misol uchun: „Yordin ayru ko'ngil...”, „O'n sakkiz ming olam oshubi...” , „Gar vafo qil, gar vafokim...” kabi g'azallarini keltirishimiz mumkin. Bu g'azallari orqali biz Navoiy bobomizning juda barakali ijod qilganini ko'ramiz.

Demak, bobomiz qoldirgan bu kabi ko'plab badiiy san'at na'munalarini o'rganib va kelajak avlod uchun ham asrab- avaylash biz kabi bilimli kitobxonlarning burchimiz hamda vazifamiz hamdir.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Registon Kutubxonasi. SHarafjon Sariyev.(metodik qo'llanma). Toshkent „REGBOOKS” nashriyoti, 2020
2. Internet research. taffakkur.net
3. <https://kh-davron.uz>
4. Adabiyot darsliklar 6 I qism (2017),9,10- sinflar - Toshkent, Manaviyat
5. <https://uz.ru.wikipedia.org>
6. Research Journal. Musokhovna K. 2021.Toshkent.11
7. <https://www.ziyouz.com>
8. Kharaxonova L. //Academic research in educational sciences. 2021.Toshkent.
9. Abduraxmonov G'. „Rustamov A. Navoiy tilining Grammatik xususiyatlari. Toshkent, „Fan” nashriyoti, 1984.
10. Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot, Toshkent „O'zbekiston, 2019.